

PUBLITSISTIK MATNDA ERGASH GAPLARNING SINTAKTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Umida Baxtiyorovna

Jizzax DPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda xorijiy til
kafedrasi katta o'qituvchisi. Tel: (93) 3087171

Annotatsiya: Ushbu maqolada ergash gaplarning publitsistik matnda yuzaga chiqadigan sintaktik-stilistik xususiyatlari o'r ganilgan va ilmiy tahlil qilingan. Ergash gaplarning sintaktik jihatdan o'ziga xosligi va stilistik ma'nodoshligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: publitsistika, publitsistik matn, asar, ma'no, munosabat, stilistika, uslub.

Аннотация: В данной статье исследуются и научно анализируются синтаксические и стилистические особенности придаточных предложений в публицистических текстах. Объясняется синтаксическая специфика и стилистическое значение следующих предложений.

Ключевые слова: журналистика, публицистический текст, произведение, смысл, отношение, стилистика, стиль.

Annotation: In this article, the syntactic and stylistic features of subordinate clauses in journalistic texts are studied and scientifically analyzed. The syntactic specificity and stylistic meaning of the following sentences are explained.

Keywords: journalism, journalistic text, work, meaning, attitude, stylistics, style.

Ergash gap ham grammatik tomondan, xuddi sodda gap tiplari kabi, nisbiy tugal fikr bildiradi, o'ziga xos ohang bilan aytildi; o'zida predikativlik belgilarini saqlaydi. Lekin semantik va stilistik tomondan, xuddi ikkinchi darajali bo'laklar kabi, juda muhim uslubiy vazifa bajaradi: berilgan gap mazuniga biror aniqlik kiritadi, biror muhim o'rinni izohlaydi, umumiy tushunchani konkretlashtiradi, mazmunni to'ldiradi; o'rni bilan hatto zarur badiiy vosita (o'xshatish, sifatlash, mubolag'a kabi) sifatida qo'llanadi. Demak, ergash gapdan, avvalo, gap oldiga qo'yilgan fikriy talab, «aloqa ehtiyoji» tufayli foydalaniladi.

Ikkinci darajali bo'laklar bosh bo'laklarga qiyosan olingan termindir. Aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol bosh bo'laklarsiz qo'llanmaydi; ega va kesimga ergashib, doim tobe vazifada keladi. Lekin ayrim yig'iq gaplarni istisno qilganda, aksariyat gap ikkinchi darajali bo'laklarsiz qo'llanmaydi. Biror gapning to'la shaklini, tugalligini va yetakchi ma'nosini ko'rsatishda ikkinchi darajali bo'laklar o'ziga xos mohiyat kasb etadi⁵¹.

Solishtiring: Men ketdim. — Men onamdan yosh yetim qoldim.

⁵¹ O'zbek tili stilistikasi. A.Shomaqsudov va boshqalar.-Toshkent 1983-y.

Ergash gaplar haqida ham shuni aytishga to‘g‘ri keladi. Hozirgi o‘zbek tilining hamma nutq uslublarida «Nur borki, soya bor», «Odam borki, odamlarning naqshidir», «Sezdimki, rais xafa» tipidagi konstruksiyalar ko‘p uchraydi. Har ikki qismda ham ma’lum bir maqsad bor, har biri o‘ziga xos intonatsion tugallikka ega. Lekin uslub tomondan «Soya bor», «Odam bor», «Sezdim» gaplarida nimadir, juda zarur, hukmni oydinlashtirish ehtiyojini qondiradigan bo‘lak yetishmaydi. Buni gaplarning mantiqiy yo‘nalishi ham, struktura ham, ifoda ham aniq ko‘rsatib turibdi; birinchi bosh gapga (Soya bor) sabab holi, ikkinchi bosh gapga (Odam borki) aniqlovchi, uchinchisiga (Sezdim) to‘ldiruvchi zarur. „

Akademik V.V.Vinogradov rus tili faktlari asosida «Men Moskvani bilaman» tipidagi gaplar bilan «bilaman(ki)» gap-larini chog‘ishtirib, keyingi tipda fikrni to‘laroq ifodalash uchun zarur biror bo‘lakning yetishmasligini ta’kidlaydi.

Mana shunday hollarda bosh gapda ifodalanmay qolgan, lekin fikriy anqlik uchun juda «zarur» bo‘lgan bo‘lak o‘rnida butun bir gap olinadi: Men bilaman(ki), iqbol bizniki.— Iqbol bizniki gapi bosh gapning bilaman fe’lidan anglashilgan ma’noni to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Iqbol bizniki tipidagi gaplar ikki xil vazifa bajaradi: a) nisbatan tugal fikr bildiradi, o‘zida predikativlikni ifo-dalaydi, intonatsion tugallikka ega — gap uchun xos hamma belgi-lari mavjud; b) lekin ikkinchi bir holatda u to‘ldiruvchiga o‘xshab, uning savollariga javob bo‘ladi, ikkinchi darajali bo‘lak uchun xos bo‘lgan belgilarni ko‘rsatadi. Bosh gapda ifodalanmay qolgan bo‘lak o‘rnini qoplab (kompensatsiya), stilistik vazifa bajaradi: fikrga anqlik kiritadi, gap qurilishiga ma’lum daraja ta’sir etadi.

Bosh gapda ifodalanmay qolgan biror bo‘lak o‘rnida ekvivalent tarzida biror ergash gap olinishi mumkin.

Ega o‘rnida: Hammaga ma’lumki (nim a?), paxtaning sifati uning tezroq terib olinishiga ham bog‘liq.

Kesim o‘rnida: U ham dongdor. Paxtachilik institutida o‘qiy-di... Lekin Umarovdan farqi — u hali yosh.—Birinchi gapda (Umarovdan farqi) kesim, U hali yosh gapi bosh gapning farqi degan egasi uchun kesimlik funksiyasini bajaradi.

To‘ldiruvchi o‘rnida: Sen sezdingmi (nimani?), bizning nafasdan Koinotda otgan edi nur. (3.)

Aniqlovchi o‘rnida: Bir o‘lkaki (qanday?), tuprog‘ida oltin gullaydi. (O.)

Hol o‘rnida: Men osmonga qo‘l uzatganda, Sayyoralar qo‘nar kaftimga. (E. V.)

Bunday konstruksiyalarda bosh va ergash gaplar semantik jihatdan bir-birining zarur elementiga aylanadi: biri ikkinchisisiz qo‘llanmaydi. To‘ldiruvchi ergash gap bilan bosh gap orasidagi mazmuniy yaxlitlik xuddi o‘timli fe’l bilan vositasiz to‘l-diruvchining aloqasi kabidir: ular bir-birining mohiyatini ko‘rsatadi; o‘z ma’nosи bilan biri ikkinchisining tarkibiy qismiga aylanadi, ergash¹ gap tO‘rin i aniqlashda ham qo‘shma gap yaxlit holda olinadi. Bu fikrning isboti uchun ana shunday qo‘shma gaplarni sodda

gapga aylantirish kifoya: ergash gap sodda gapning juda muhim yoyiq bo'lagiga aylanib, asosiy gap tarkibidan mustahkam o'rin oladi: Ko'rdimki, komandir kelayotir.— Komandirning kelayotganini ko'rdim. Sezdimki, daryo sayoz.— Daryoning sayozligini sezdim.

Bular stilistikada parallel konstruksiyalar nomi bilan yuritiladi. Ulardan biri (Sening yaxshilingni bilaman. Iiqilganni suyaydigan odamlar bor) jonli nutqda ko'proq qo'llansa, ikkinchisi (Bilaman: sen yaxshisan. Odamlar bor: yi-qilganni suyaydi.) badiiy va publitsistik nutqda keng tarqalgan.

Bosh gapning kesimi fe'l bilan ifodalansa, ergash gaplarga ko'proq talab bo'ladi: harakat va holatni konkretlashtirish uchun bir qator gap bo'laklari zarur bo'lib qoladi. Jumladan, o'rin ve payt «harakatlarning asosiy yashash formasi» bo'lib, bosh gapda ana shu tushunchalarni ifodalovchi gap bo'laklari yashirinsa, gap mazmunining o'zi payt yo o'rin hollarining zarurligini ko'rsatib turadi va ana shu bo'laklar o'rnida payt ergash gap yo o'rin ergash gap qo'llanadi: Sen yovni quvigan chog'da, Uq tashisam paydar-pay senga. Odam odamlikni egallab olgach (q a c h o n ?), Bir etak yulduzni to'kdi koinot.

Badiiy va publitsistik nutqda nisbiy olmoshli konstruksiyalar ko'p uchraydi. Bunda mazmun g'oyat umumlashgan bo'ladi. Bu vaqtda ergash gap shaxs, predmet, o'rin, holat, sifat-belgilar orasidagi munosabatni qiyoslash, ularga ma'lum darajada aniq-lik kiritish uchun xizmat qiladi: Kim egri bo'lsa, so'zi ham to'g'-ri emas, Har kimki vafo qilsa, vafo topgusidir. (Bobir.) Kimiki mard erur, insof lozim. (Fuzuliy.) Qayga desang, qaytmay borurman.— Birinchi ergash gap bosh gap uchun aniqlovchilik, ikkinchi ergash gap bosh gap uchun ega, uchinchi ergash gap (Kimiki mard erur) bosh gap uchun to'ldiruvchi va to'rtinchi ergash gap (Qayga desang...) bosh gap uchun o'rin holi vazifasini bajargan.

Bosh gapda ifodalanmay qolgan bo'lak o'rnida ba'zan shu, shuni, u, unga, undan, u yerda, o'sha kabi ko'rsatish olmoshlarini qo'llash mumkin. Bu vaqtda bosh gap shaklan to'liq gap tusini oladi, lekin mazmunda yana to'liqsizlik seziladi; bu olmoshlar ham «g'oyat umumlashgan», «mavhum» narsa-tushunchalarni bildiradi va izoh talab qiladi. Bunday holatda ham ergash gap bosh gapning olmosh bo'lagini izohlab, uning mavhum ma'nosini ochadi: Shun-dan xursandmanki, ular Elobodni xam bilar ekanlar. Qa-yerda ahillik bo'lsa, shu yerda baraka bor. Kim kinavar o'lsa, ys-ta andin qochmoq. (N.)

Bunday gaplar yoyiq sodda gapga aylantirilganda, ergash gap bosh gapning olmosh bo'lagi o'rnini egallaydi: Kim istasa saltanat saxovatdir anga shart. — Saltanat istaganga saxovat shart. Kim kinavar o'lsa, ista andin qochmoq.— Qasoschidan qoch. Ong bilan vijdon, avvalo, shuni taqozo etadiki, olim o'z tili va dili bilan barchaga namuna bo'lishi lozim,— Ong bilan vijdon olimning, avvalo, o'z tili va dili bilan barchaga namuna bo'lishini taqozo etadi. Odam borki, bo'rini ham soladi yo'lga. (S. Akb.) — Odam bo'rini ham yo'lga sola oladi. Qaerda navbahor yomg'iri

quysa, Xushbo'y o't-o'langa qoplanadi yer. Nav-bahor yomg'iri quygan joyda yer o't-o'langa qoplanadi.

Albatta bu gaplar orasiga uzil-kesil tenglik qo'yib bo'lmaydi: hukmda, maqsadda yaqinlik bo'ladi, lekin gap tarkibida, bog'lovchilarda, demak, qo'shma gap va yoyiq sodda gap orasida ayrim tafovutlar bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki yuqorida kurib utgan hodisalar stilistikaning qolaversa, matn tilshunosligining vazifasi hisoblanadi

ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tili stilistikasi. A.Shomaqsudov va boshqalar.–Toshkent. 1983-y.
2. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс.- Т.,1993.
3. Кубрякова Е.С. О тексты и критериях его определения//Текст. Структура и семантика.Т.1.-М.,2001.С.72-81.